XORAZM VILOYATI URGANCH SHAHAR HOKIMINING

QARORI

2024-yil 23-sentabr | 547-12-180-Q/24 | Urganch shahar hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-iyulda “Zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish sohasini yanada rivojlantirish va ularning raqobatbardoshligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-104-sonli Farmoni va bu yuzadan viloyat hokimining 2024-yil 23-avgustdagi 332-12-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-iyulda “Zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish sohasini yanada rivojlantirish va ularning raqobatbardoshligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-104-sonli Farmoni va bu yuzadan viloyat hokimining 2024-yil 23-avgustdagi 332-12-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta′minlash maqsadida

Qaror qilaman:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-iyulda “Zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish sohasini yanada rivojlantirish va ularning raqobatbardoshligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-104-sonli Farmoni va bu yuzadan viloyat hokimining 2024-yil 23-avgustdagi 332-12-0-Q/24-sonli qarorlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoniga assosan viloyat hokimining qarori bilan:

Farmonga muvofiq tashkil etiladigan zargarlik markazlarida faoliyat yuritayotgan zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchilarga qimmatbaho metallarni kechiktirib to‘lash sharti bilan sotishda:

90 kun ichida amalga oshirilgan to‘lovlar qismiga foiz hisoblanmasligi;

91-kundan boshlab 180-kungacha amalga oshirilgan to‘lovlar qismiga yillik 3 foiz miqdorida foiz hisoblanishi ma’lumot uchun qabul qilinganligi;

- Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (M. Iskandarov), viloyat hokimining mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari bo‘yicha yordamchisi F.Xudayberganov, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat boshqarmasi (Sh.Raximov), Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasi (Q.Igambergenov) Markaziy bankning viloyat bosh boshqarmasi (K.Qurbonov) bilan birgalikda:

2025-yil yakuniga qadar “O‘zmilliybank” AJ tajribasidan kelib chiqib, viloyat hududida zargarlik markazlarini tashkil etish bo‘yicha takliflarni kiritishlari;

2025-yil 1-yanvarga qadar zargarlik markazlarini tashkil etish uchun davlat ko‘chmas mulk obyektlarini yaxlit mulk sifatida yoki lotlar (qismlar va xonalar)ga bo‘lgan holda tadbirkorlik subyektlari va tijorat banklariga o‘rnatilgan tartibda uzoq muddatli ijaraga yoki mulk huquqi asosida, qiymatini bo‘lib-bo‘lib to‘lash shartlarida realizatsiya qilish choralarini ko‘rsishlari;

- Viloyat hokimining mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari bo‘yicha yordamchisi F.Xudayberganov, Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasi (Q.Igambergenov), viloyat kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi (Z.Ollaquliyev) zargarlik sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash maqsadida zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish, ularni realizatsiya qilish, gemmologiya, qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlarga ishlov berish hamda ularni sayqallash yo‘nalishlari bo‘yicha qisqa muddatli o‘quv kurslari tashkil etishlari, Bunda, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi viloyat boshqarmasi (O.Otamuratov) 2025-yil 1-yanvarga qadar qisqa muddatli o‘quv kurslarini tashkil etish uchun tadbirkorlik subyektlariga qulay bo‘lgan ta’lim muassasalaridan tekin foydalanish huquqi asosida zarur bino va xonalar ajratish chorasini ko‘rishi;
- Viloyat hokimining ayrim qarorlariga 1-ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi;
- Viloyat boshqarmalari, tashkilotlari va idoralari rahbarlari o‘zlari qabul qilgan hujjatlarini ushbu qarorga muvofiqlashtirishlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari J.Eshchanov zimmasiga yuklansin.

Urganch shahar hokimi **B.Radjapov**

Urganch shahar hokimining
2024-yil 23-sentabrdagi
547-12-180-Q/24-son qaroriga
1-ilova
Xorazm viloyat hokimining2024-yil 23-avgustdagi

332-12-0-Q/24-son
qaroriga1-ilova

Viloyat hokimining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirish vaqo‘shimchalar

1. Viloyat hokimining 2017-yil 7-noyabrda “Maxsus turdagi tovarlar eksporti va importini litsenziyalash, shuningdek eksport kontraktlarini ro‘yxatga olish va import kontraktlarini ekspertizadan o‘tkazishni tartibga solish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi 825k-sonli qaroriga 1-ilova

a) 4-pozitsiya quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

4.	Qimmatbaho metallar va ulardan tayyorlangan boshqa buyumlar*	7106, 7107 — 7111 00 000 0, 7112, 7115

”;

b) izoh qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“ quyidagi hollarda qimmatbaho metallar va ulardan tayyorlangan boshqa buyumlar eksporti va importi uchun litsenziya olish talab etilmaydi:*

jismoniy shaxslar tomonidan Markaziy bankning o‘lchovli kumush quymalarini (TIF TN bo‘yicha kodi 7106) O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan tashqariga olib chiqishda;

jismoniy shaxslar tomonidan Markaziy bankning o‘lchovli oltin quymalarini (TIF TN bo‘yicha kodi 7108) O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan tashqariga olib chiqishda;

2024-yil 1-oktabrdan 2027-yil 1-oktabrga qadar yuridik shaxslar tomonidan zargarlik sanoatida ishlatiladigan ligatura mahsulotlarini (TIF TN kodi 7106 92 000 0) O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirishda;

2024-yil 1-noyabrdan boshlab qimmatbaho metallarning hamda qimmatbaho metallar bilan qoplangan metallarning chiqindilari va parchalarini (TIF TN kodi 7112) O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirishda;

affinaj korxonalari va zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchilar tomonidan qimmatbaho metallarni hamda tarkibida qimmatbaho metallar mavjud bo‘lgan xomashyoni “bojxona hududida qayta ishlash” bojxona rejimigajoylashtirishda hamda “bojxona hududida qayta ishlash” bojxona rejimiga joylashtirilgan qimmatbaho metallar va tarkibida qimmatbaho metallar mavjud bo‘lgan xomashyoni qayta ishlash natijasida olingan mahsulotlarni O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan tashqariga olib chiqishda”.

2. Viloyat hokimining 2017-yil 18-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-dekabrdagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5285-son Farmoni haqida”gi 918k-sonli qarorining 3-bandi yetmish uchinchi xatboshisi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.
3. Viloyat hokimining 2018-yil 31-iyuldagi 506k-sonli qarori bilan tasdiqlangan Tekshiruvlarni elektron ro‘yxatga olish yagona tizimida ro‘yxatdan o‘tkazish orqali vakolatli organni xabardor etish tartibida o‘tkaziladigan tekshiruvlar ro‘yxati quyidagi mazmundagi 26-pozitsiya bilan to‘ldirilsin:

“

26.	Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan zargarlik hamda boshqa buyumlar bilan chakana savdo qilish, ularni tamg‘alash va asillik darajasini aniqlash qoidalariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish.	O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat asillik darajasi nazorati inspeksiyasi	10 kundan oshmagan holda